

1. Asosida 2 ta jarangli undosh o'rtasida keng unli qatnashgan yasama so'zni aniqlang.

- A) gulbeor B) qarmoq C) borliq D) chopqir

2. Quyidagi qaysi gaplarda teng bog'lovchilar uyushiq bo'laklarni bog'laman?

1. *Yerga tushgan chiroq bir-ikki lopilladi-yu, avval ko'k, keyin qizg'ish alanga ko'tarildi.*

2. *Bo'taboy tin olmay, goh bosh chayqab, goh qoshini kerib, goh "Ana! O'h, o'h-o'h!" deb quloqsoldi.*

3. *Daraxtni gullata bilishgina emas, balki udan mo'l hosil yetishtira bilish ham san'atdir.*

4. *Yorning o'zi emas, balki guli keldi.*

- A) 1,4 B) 3,4 C) 1,2 D) 2,3

3. Qaysi fe'llar tarkibida ikki xil nisbat qo'shimchasi ketma-ket qo'llangan?

1) tushuntirdi; 2) so'zlatishdi; 3) uqtirildi; 4) tiklatildi;

5) yozdirtirdi; 6) iltildi; 7) o'zgartirdi.

- A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4, 6 C) 2, 3, 4, 5, 6 D) 1, 3, 4, 5, 7

4. *Tiyg'i ishqing yorasidur butmagon,*

Dardini har kimga aytib butmagan.

Hajr sahrosidur ohim o'tiding,

Anda gul yoxud giyohe butmagon.

Ushbu tuyuq muallifi kim?

- A) Bobur B) Munis C) Navoiy D) Ogahiy

5. *Vokzalda boshlangan qiy-chuvdan yuraklaring ezilib ketadi, onalar o'g'illari, erlarining bo'yniga osilib yig'lashar, otalar o'g'illarining yelkasiga suyanib unsiz faryod qilishar, bolalar onalarining pinjiga tiqilib dodlashar edi.*

Berilgan gapda qatnashgan tub fe'llar tarkibidagi nisbat qo'shimchalari sonini belgilang.

- A) 3 B) 5 C) 6 D) 4

6. Qaysi javobda keltirilgan barcha so'z to'g'ri yozilgan?

- A) xassos, xalqa, hijil B) hassos, xalqa, xijil
C) hassos, halqa, xijil D) hassos, halqa, hijil

7. O'z ijodida shohlarga qarata: "*Raiyat (xalq) pada bo'lsa, sen cho'ponsan, u mevali daraxt bo'lsa, sen – bog'bon, agar cho'pon qo'ylarni asramasa, ular och bo'rilar yem bo'ladi. Podani bo'rilar asra, bog'ni suv berib yashmatgin*" degan mazmundagi ibratomuz fikrlarni keltirgan ijodkorni aniqlang.

- A) Xo'jandiy B) Yusuf xos Hojib
C) Xorazmiy D) Alisher Navoiy

8. *Bolalik kunlarimda*

Uyqusiz tunlarimda

Ko'pertak eshtgandim,

So'ylab berardi buvim.

Ushbu parcha haqida bildirilgan to'g'ri hukmni toping.

- A) bog'lovchisiz qo'shma gap B) murakkab qo'shma gap
C) ergashgan qo'shma gap D) bog'langan qo'shma gap

9. *Poyingda shu jannat tufroq istiqlol,*

Boshingda bulutsiz samo hurlikdir,

Beshigingda chaqnab yotar istiqlol

Mustaqillik tili, dili birlikdir.

She'riy parchada ismlar guruhiga kiruvchi yasama so'zlar necha xil so'z turkumiga oid?

- A) 3 B) 2 C) 4 D) 1

10. *Respublikamiz maktablari o'quvchi hamda o'qituvchilarini darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashni ko'ngildagidek yo'lga qo'yaylik.*

Ushbu gapda 2 ta munosabat shakliga ega bo'lgan so'zlar qaysi gap bo'lagi vazifasini bajargan?

A) 2 o'rinda vositasiz to'ldiruvchi, 1 o'rinda kesim

B) 2 o'rinda qaratqich aniqlovchi, 2 o'rinda vositasiz to'ldiruvchi

C) 1 o'rinda qaratqich aniqlovchi, 2 o'rinda vositasiz to'ldiruvchi

D) 2 o'rinda vositasiz to'ldiruvchi

11. Qaysi gapda hamimloviy, ham tinish belgilarining qo'llanilishi bilan bog'liq xatoliklar mavjud?

A) Mening bir jaydari falsafam shu: Xargiziltimos ga kuning qolmasin.

B) Birdan uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi, yuragim gursillagancha o'rnimdan turib ketaman.

C) Oyim endi o'rimdan turayotgan edi; eshik qarsillab ochildi.

D) Do'stinga tushgan xavf meni ham taxlikaga solmas ekan; bu chinakam do'stlik emas.

12. Navoiyning qaysi g'azalida qofiyaga olingan so'zlardan faqat bittasi o'zbekcha, qolganlari arabiy, forsiy so'zlar sanaladi.

A) "Bo'ldumsanga" radifli g'azali B) "Qilg'il" radafli g'azali

C) "Bo'l" radifli g'azali D) "Kelmadi" radifli g'azali

13. Qaysi qatordagi gapda kompozitsion usul bilan yasalgan ot kompozitsion usul bilan yasalgan boshqa bir otga tobelangan?

A) Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bemaza qovunga o'xshaydi.

B) Majnuntolning barglari sarg'ayib to'kilmoqda.

C) Ko'z oldimdan ichakuzdi qiliqlar qilayotgan qiziqchilar, toshlarni osmonga irg'itib o'ynayotgan polvonlar ketmasdi.

D) Boychechakning tovlanib turgan gulbarglari hammaning ko'nglidagi gina-adovatga barhamberdi.

14. "*Oyoqlangan qo'ziday dovdidar yelda maysa, ko'm-ko'k moviy osmonda kezib yurar oq bulut*" kabi satrlarda hayotiy asosi chuqur bo'lgan tashbihlar qo'llagan shor kim edi?

- A) Mirtemir B) A. Muxtor C) Zulfiya D) A. Oripov

15. Ballada janriga oid bo'lmagan asarni toping.

- A) "Uch qiz afsonasi" (Shuhrat) B) "Muqqana" (H.Olimjon)
C) "Qullar kemasi" (H.Hayne) D) "Ikki vasiqa" (G.G'ulom)

16. *Meni yam-yashil o'tloqlarda dumalatgan, chang ko'chalarda o'ynatgan damlarni unutmaysiz qiyinalaman.*

Ushbu gapda aniqlovchili so'z birikmalari necha o'rinda qatnashgan?

- A) 2 B) 5 C) 4 D) 3

17. *Ota o'g'illariga qarab: "(1) Hozir nimani ko'rgan bo'lsangiz, sizning ahvolingizga misol. (2) Agar ittifoqda bo'lsangiz, sizni hech kim sindira olmaydi.*

Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gapning ko'chirma gap qismidagi gaplar haqida to'g'ri hukmni aniqlang.

A) 1- to'ldiruvchi ergashgan qo'shma gap; 2- hol ergashgan qo'shma gap

B) 1- ega ergashgan qo'shma gap; 2- hol ergashgan qo'shma gap

C) 1- aniqlovchi ergashgan qo'shma gap; 2- to'ldiruvchi ergashgan qo'shma gap

D) 1- ega ergashgan qo'shma gap; 2- to'ldiruvchi ergashgan qo'shma gap

18. *Kim mehnatni qadrlamasa, bu mehnat unga huzur bag'ishlay olmaydi.*

Ushbu gap turini aniqlang.

A) to'ldiruvchi ergashgan qo'shma gap

B) ega ergashgan qo'shma gap

C) aniqlovchi ergashgan qo'shma gap

D) hol ergashgan qo'shma gap

19. *Tabiat ishlariga qo'pollik bilan aralashish tufayli paydo bo'lgan kasalliklarni farmatsevtika zavodlarida ishlangan dorilar bilan tuzatib bo'lmaydi.*

- Ushbu gapdagi yordamchi soʻz turkumlariga mansub birliklar hamda ular bilan shakllangan boʻlaklar haqida berilgan toʻgʻri fikrni aniqlang.
- A) Yordamchi soʻz turkumlarining ikkitasi sof koʻmakchisi, bittasi vazifadosh bogʻlovchi hisoblanadi.
 B) Yordamchi soʻzlar ikki oʻrinda oʻtini, bir oʻrinda feʼlni hokim qismga tobelantirgan.
 C) Yordamchi soʻzlar bir oʻrinda hol, ikki oʻrinda toʻldiruvchini shakllantirishga xizmat qilgan
 D) Yordamchi soʻzlar bilan shakllangan boʻlaklarning barchasi kesimga bevosita tobelangan.

20. Qaysi gapda egalar shakldoshlik xususiyatiga ega boʻlgan soʻzlar bilan ifodalangan?
- A) Daraxt shoxlari yoz faslida sargʻaysa, kuzerta keladi.
 B) Ogʻiz va tilning bezagi toʻgʻri soʻzdir, toʻgʻri soʻz-la tilingni beza.
 C) Qorongʻu kechada otilgan mushak hamgoʻzal quyoshga qarab turgan gul hamgoʻzal.
 D) Kechqurun osh suzak, bir nasiba kam.

21. *Ilm ikki xil boʻladi biri qalbdagi ilm ikkinchisi tildagi ilm.*
 Ushbu gapda tushurib qoldirilgan tinish belgilarini aniqlang .
- A) 2 oʻrinda vergul
 B) 1 oʻrinda ikki nuqta, ikki oʻrinda vergul
 C) 1 oʻrinda ikki nuqta, 1 oʻrinda vergul, 2 oʻrinda tire
 D) 2 oʻrinda vergul, 2 oʻrinda tire

22. Qaysi soʻz birimasidagi tobe soʻzda urgʻu oxirgi boʻgʻinga tushadi.
- A) oppoqgul
 B) kechki taom
 C) yigitcha ishlamoq
 D) yangi kelgan

23. “Sohibqiron” dramasi kimning otasi Amir Temurga sarboz boʻlib Dehli jangida shahid ketgan edi?
- A) yasovul Qosimbek
 B) Barlos Bahodir
 C) Alovuddin
 D) Buqalamun

24. Quyida berilgan matndagi yasama soʻzlar sonini toping.
Oʻz tilingizda fikrlashga toza gapirishga, natqingini har xil yot unsurlardan saqlashga harakat qiling. Til mavsumiy libos emaski, ob-havoning oʻzgarishiga qarab almashtirilsa.
- A) 6
 B) 7
 C) 8
 D) 5

25. Quyidagi berilganlardan Asqat Muxtorning qissalarini aniqlang.
- 1) “Poʻlat quyuvchi” 2) “Daryolar tutashgan joyda”
 3) “Samandar” 4) “Buxoroning jin koʻchalarida” 5) “Davr mening taqdirimda”
- A) 2,3,5
 B) 1,4,5
 C) 1,3,4
 D) 2,4

26. Qaysi gapdagi barcha sifatlar nisbiy sifatlar hisoblanadi?
- A) Oʻymakor gullari bilinmaydigan darajada oʻchgan, qoʻsh tabaqali eski eshikka kiramiz.
 B) Pochchamelilikdan oshgan, novcha, kasalmand, rangpar kishi edi.
 C) Baqqolamaki oʻzi pakana-yu, lekin yuzi katta, peshonasi keng, iyagi kalta odam edi.
 D) Oldimizda mevali va mevasiz daraxtlari koʻp boʻlgan oʻrmon yastanib yotardi.

27. Bahor kelsa, boshlanar bogʻda bulbulxonishi saʼva, qumri nagʻmasi, suralay tovlanishi.
 Gapdagi uyushiq boʻlaklar haqidagi notoʻgʻri hukmni aniqlang.
- A) Uyushiq aniqlanishlar ega vazifasida bajargan.
 B) Gapda ega va aniqlovchi uyushgan
 C) Uyushiq egalar faqat bir turkumga oid soʻzlar bilan ifodalangan.
 D) Kesimga bevosita va bilvosita tobelangan boʻlaklar uyushib kelgan.

28. Ergash gap bosh gaplarning bir xil boʻlaklarini izohlagan bir necha bosh gapli murakkab qoʻshma gapni aniqlang.
- A) Kimki ota-onasini hurmat qilsa, u boshqalardan imon topadi, el orasida yaxshi deb nomqozonadi.
 B) Butun dunyoga maʼlumki, siz ham unutmangki, Orolni saqlab qolish hammamizning burchimiz.

- C) Kimning qalbi pok boʻlsa, uning ishlari oʻz-oʻzidan yurushib ketveradi, hamma unga madakor boʻladi.
 D) Kimki umid bilan daraxt oʻtqazsa, olqish-u rahmatlarga sazovor boʻladi, bir kuni kelib daraxt unga shigʻil meva beradi.

29. *Oʻqishlar har xil boʻladi: birov dam olish uchun birov oʻqiyotgan kitobini ilmiy tahlil qilish uchun, birov boshqa mashgʻulot boʻlmagani uchun, birov asardagi voqeaga, qahramonning taqdiriga qiziqib oʻqiydi.*
 Berilgan gapdagi toʻldiruvchili birikmalar sonini aniqlang.
- A) 4
 B) 2
 C) 5
 D) 3

30. Quyidagi qaysi gapda yuklama ega vazifasidagi soʻzga qoʻshimcha maʼno yuklangan?
- A) Men na bol tayyorlamoq mashaqqati va na uya solmoq kulfatini oʻylayman.
 B) Goʻyo togʻlarga mayin oq kigiz yopilganay koʻrinadi.
 C) Sen ham men kabi rohatda yashasang boʻlmaydimi?
 D) Qizginam atlas koʻylagini hilpiratib kirib keldi.

31. Oʻzbek tilida lab undoshlarining nechta jarangli sirgʻaluvchi undosh sanaladi?
- A) ikkita
 B) uchta
 C) toʻrtta
 D) bittasi

32. Berilgan qaysi gapda gap boʻlaklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan boʻlak ishtirok etgan?
- A) Bu kampir Toshkentda ishlaydigan oʻgʻlinikida bir oy turib yana qishloqqa, boshqa bolalari, nevaralari huzuriga ketayotgan edi.
 B) Siyrak daraxtli ikkinchi bir tepalikda bir necha kishilarning, ayol va erkaklarning, qorasi koʻrindi.
 C) Mana, hamma narsani tayyorlab ham qoʻydik, ammo oʻzlaridan hanuz darak yoʻq.
 D) Zorqishloq koʻchalarida, adir va qirlarida, serdaraxt bogʻlarida, koʻklam namoyish kezadi.

33. Qaysi gapda besh oʻrinda vergul tushirilgan?
- A) Inson millat xalq biron narsaga erishmagan boʻlsa yo oʻzigoʻl yo oʻzi tanbal yo uyquda tutilgan.
 B) Xirmon sayli qodun sayli gul bayrami Navroʻz shodiyonalari sheʼrsiz bahribayt va oʻlanlarsiz oʻtmaganligini yaxshi bilasiz.
 C) Har bir odam oʻzining oqil obroʻ-eʼtiborli isteʼdodli sadoqatli doʻstlari bilan faxrlanadi ammo doʻstlik mezonini faqat shular bilan oʻlchanmaydi.
 D) Bu qissadan hissa shuki tuban ehtiroslar qanchalik zoʻr boʻlasin aql-idrok albatta yenggusidir.

34. Asqad Muxtorning sheʼriy toʻplamlari berilgan javobni toping.
- A) “99 miniatyura”, “Dunyo bolalari”
 B) “Chin yurakdan”, “Quyosh belanchagʻi”
 C) “Rahmat, mehribonlarim”, “Mardlik choʻqqisi”
 D) “Karvon qoʻngʻirogʻi”, “Kumush tola”

35. *Merosxoʻrlik faqat mulk
 Yoki boylik uchunmas.
 Bu bobolar, momolar
 Qabrini tinch saqlashdir.
 Ota tuzini oqlash
 Ona sutim oqlashdir.*

- Berilgan parchada otlar tarkbidagi munosabat shakllari nechta oʻrinda belgisiz qoʻllangan?
- A) 4 oʻrinda
 B) 3 oʻrinda
 C) 2 oʻrinda
 D) 6 oʻrinda

36. Berilgan gapda teng munosabatdagi boʻlaklar qaysi boʻlak vazifasida kelgan va qaysi boʻlakka bevosita tobelangan.
- Navoiy, Bedil, Fuzuliy baytlarini tahlil qilish kerak.*
- A) ega, aniqlovchiga
 B) ega, kesimga
 C) aniqlovchi, toʻldiruvchiga
 D) toʻldiruvchi, kesimga